



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING  
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil 27 - yanvar

73-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Denov tumani “Chuqurqishloq” mahallasi hududidan “Maktabgacha ta’lim tashkiloti”  
binosi qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagি 543-son qaroriga asosan, Denov tumani hokimining 2022-yil 21-yanvardagi 01-36/46-son xatini inobatga olib (“YERELEKTRON” AAT ID raqami Y-1722210/B-14348),

**QAROR QILAMAN:**

1. Denov tumani “Chuqurqishloq” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidan qishloq xo‘jalik xaritasining 231q-dala konturidagi 0,52 hektar qishloq xo‘jaligida foydalanimaydigan yer maydoni yangi zamонавиу tipdagи “Maktabgacha ta’lim tashkiloti” binosi qurilishi uchun tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanimishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov

zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**